

TARJIMASHUNOSLIK NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Axmedjanova Dilafruz Batirovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ

Ахмеджанова Диляфруз Батировна

*Старший преподаватель Узбекского государственного
университета мировых языков*

THEORY AND PRACTICE OF TRANSLATION STUDIES

Axmedjanova Dilafruz Batirovna

Senior Lecturer, Uzbek State University of World Languages

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyoti yoritilgan. Tarjima nazariyasi va amaliyoti haqida so'z borar ekan, tarjimashunoslik bilan shug'ullanadigan tarjimon avvalo o'z ona tilining lingvistikasini mukammal bilishi lozim. Ko'r asrlik adabiy an'anaga ega bo'lgan milliy adabiyotlar tarjimasi ham tarjimashunoslikda munosib o'rin egallaydi. Tarjimashunoslik ijodiy jarayon hisoblanganligi sababli unda o'ziga xos qiyinchiliklar namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: tarjima qisqartma, ijodiy jarayon, adabiy tarjima, talqin, interpretatsiya, so'z boyligi.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы теории и практики переводоведения. Что касается теории и практики перевода, то переводчик, занимающийся переводоведением, должен в первую очередь обладать глубокими знаниями в области лингвистики своего родного языка. Перевод национальной литературы, имеющей многовековую литературную традицию, также занимает достойное место в переводоведении. Поскольку переводоведение считается творческим процессом, оно имеет свои сложности.

Ключевые слова: переводческая аబревиатура, творческий процесс, художественный перевод, интерпретация, лексика.

Abstract: This article covers the theory and practice of translation studies. Speaking about the theory and practice of translation, a translator engaged in translation studies must first of all have a perfect knowledge of the linguistics of his native language. The translation of national literature, which has a centuries-old literary tradition, also occupies a worthy place in translation studies. Since translation studies are considered a creative process, it presents its own difficulties.

Keywords: translation abbreviation, creative process, literary translation, interpretation, vocabulary.

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / ABSTRACT

Bugungi kunda, mustaqil diyorimizda bir qator xorijiy davlatlar bilan o'zaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar, xalqaro hamkorlik ishlari tobora tiklanib va rivojlanib borayotgan bir paytda chet tillarini puxta bilish talab etilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqtisi-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan

ekanmiz, bundan buyon maktab, lisey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilar kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart" [1]. Shu bois, turli ta'lif bosqichlarida xorijiy tillarni mukammal o'rganib borish uzlusiz ta'lif tizimida hal qilinishi zarur bo'lgan masalalardan hisoblanadi.

Tarjima – bu bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat bo'lgan adabiy ijod jarayonidir. Tarjima bugungi kunda millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishlaridan ekanligi har sohada o'z isbotini topmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Tarjima inson faoliyatining qadimiy turlaridan biri bo'lib, turli tilli xalqlarning ilmiy muloqotini amalga oshirishga yo'naltirilgan. Insonlar ma'naviy hayotini o'zga mualliflar asarlari bilan boyitish, ona tilining bor bisoti, nafosati, imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'quvchi, tinglovchi va kitobxon bilim tafakkurini charxlashda tarjimaning ahamiyati beqiyosdir.

Bugungi kunda tarjimaga bo'lgan ehtiyojning yangilanib borishi tarjima ishini "qayta yaratish san'ati" ekanligini ifoda etmoqda. Chunki, tarjimada xorijiy tilidagi bir ma'noni boshqa tilning ifoda matniga o'tkazish jarayoni yuz beradi. Shuning uchun, tarjimon asardagi voqealarni o'z badiiy tafakkurida yangidan idrok etadi va qog'ozga tushiradi [2].

Shu o'rinda aytib o'tmoqchimizki, boshqa xorijiy tilni yaxshi o'rganmoqchi bo'lgan inson avvalambor o'z ona tilining leksik va grammatik jihatlarini mukammal bilishi, tilni e'zozlashi, qadrlashi, tarixini bilgan va madaniyati, urf-odatiga amal qilgan xolda uning qadr-qimmati uchun kurashishi kerak. Binobarin, o'z ona tilidan tashqari, boshqa xorijiy tillarda ham so'zlasha bilish har qanday insonning dunyoqarashi va ma'naviyatini yanada boyitadi.

Tarjima amaliyoti tobora shakllanib borayotgan filologik soha bo'lib, uning tamoyillari tarjima-shunos olimlar tomonidan ishlab borilayapdi. Tarjima ijodiy jarayon hisoblangani uchun uning barcha bosqichlari tarjimaviy qiyinchiliklar bilan bog'liq. Aynan tarjima tufayli keyingi yillarda xorijiy davlatlar o'rtasidagi aloqalar kengayib bormoqda, tafakkur charxlanib, yangi-yangi g'oyalar, fikrlar va imkoniyatlarga ega bo'lib borilmoqda. Bu amaliyot o'z qonun-qoidalariga ega ijodiy jarayon bo'lib, turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-biriga bo'lgan ta'sirini kuchaytiradi, xorijiy tilda yaratilgan matnni ona tili materiali asosida qayta yaratilishiga sababchi bo'ladi.

Tarjima jarayoni tarjimondan mohirlik talab etadi, chunki tarjimon asl nusxani to'la idrok etishi va tarjima qilinayotgan tilda kamchiliksiz ifoda etishi zarur. Asliyat va tarjimaning mazmunan to'liq mos kelishi birinchi darajali zarurat ekanligi tufayli ko'pchilik tadqiqotchilar ekvivalentlikni tarjimaning asosiy belgisi va sharti deb hisoblashadi. Xulosa shuki, ekvivalentlik tarjimaga berilgan "bir tildagi

matnni o'zga tilda shu darajadagi matn bilan almash tirish" kabi ta'rifga mos keladi. Ushbu holda ekvivalentlik tushunchasi tarjimaning sifatlilik, yuqori bahoga loyiqlik xususiyatini anglatadi [3].

Tarjima nazariyasi va amaliyoti haqida so'z borar ekan, tarjimashunoslik bilan shug'ullanayotgan tarjimon o'z ona tilining lingvistikasini mukammal bilmog'i shart. Tarjima nazariyasi o'z tadqiqotlarini boshqa qator an'anaviy filologik va lingvistik tadqiqot metodlaridan foydalangan xolda olib boradi. Shu bilan birga asliyat va tarjima tillari lisoniy vositalarini batatsil tahlil qilish zarurati lingvistik tadqiqotning boshqa ayrim maxsus metodlaridan ham, jumladan, komponentlar tahlili metodidan foydalanishni taqozo etadi. Bunday paytda qiyoslanayotgan ikki til birliklarining turli kontekstlarda qo'shimcha ma'no va ma'no belgilari kasb etish holatlari tahlil etiladi. Bir-birlarini to'ldirishga xizmat qiladigan mazkur metodlar amalga oshirilgan tarjimalarni har jihatdan xolis baholash imkoniyatini beradi.

Tarjimada talqin-interpretatsiya katta ahamiyatga ega. Jumladan, badiiy adabiyotlar tarjimalarida badiiy talqinga, ilmiy adabiyotlar tarjimalarida ilmiy talqinga, og'zaki tarjimalarda esa hozirjavob talqinga ko'p narsa bog'liqidir [4]. Ko'pgina hollarda vaziyatdan kelib chiqqan holda tarjimon "umumiylashtirish" usulini qo'llaydi. Bunday hollarda asliyatning obrazli, adabiy tizimi birmuncha yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Tarjimon so'zlar va fikrlarni shunchaki so'zma-so'z o'girish bilan cheklanmaydi. U so'zlar zamiridagi ma'nolar, voqelik, sabab va muddaolarni puxta o'rganib chiqadi hamda mohirlik bilan o'sha asarni boshqa til egalariga tushunarli qilib yetkazib berishga urinadi. Mazkur kasb egalari asosan lug'atdan foydalana dilar, chunki lug'at tarjimaning asosiy manbai hisoblanadi [5]. Tarjimon qancha ko'p til bilsa, shuncha yaxshi, chunki u bilgan tillari asosida birmuncha lug'atlar bilan ishlaydi, bunda uning ham tajribasi, ham so'z boyligi ortib boraveradi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Tarjimashunoslik bilan shug'ullanayotgan kishilar o'zlarini sinxron tarjimaga ham tayyorlab borishlari zarur. Binobarin, O'zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari kengaygan sari sinxron tarjimaga bo'lgan ehtiyoj ham ortib borayapti. Bu jarayon uchun tarjimon ikki yoki undan ortiq tillarni mukammal bilishi, leksik talaffuz normalariga rioya etishi, siyosiy, iqtisodiy, fasafiy,

ijtimoiy tushunchalar, tilning barqaror birliklaridan va xalq iboralaridan boxabar bo‘lishi kerak.

Ko‘p asrlik adabiy an'anaga ega bo‘lgan milliy adabiyotlarning hammasida ham tarjima o‘ziga munosib o‘rinni ishg‘ol qiladi. Tarjima tarixini yaratmay, tarjimaning har bir davrda qanday qonuniyatlar asosida rivojlanguani, ayni milliy adabiyot taraqqiyotida qanday tarjima maktablari tashkil topganligi va bu tarjimalar jahon madaniyatini rivojlantirishda qanday rol o‘ynaganini aniqlamay turib, o‘sha milliy adabiyot tarixini to‘liq yoritib bo‘lmaydi. Shuni aytish joizki, tarjimashunoslik faqatgina adabiy asarlar tarjimasi bilan tugamaydi. Adabiyotdan tashqari iqtisodiy, yuridik yoki texnikaga oid terminlar tarjimasi ham mavjud bo‘lib, ularni tarjima qilishda anchagina qiyinchiliklarga duch kelamiz. Shu bilan birga jahon adabiyoti asarlari asosida sahnalashtirilgan kinofilmlar tarjimasi ham tarjimondan katta mehnat talab qiladi. So‘nggi yillarda tarjima muammolariga katta e’tibor berilmoqda, chunki bu muammolar o‘z ichiga nazariya va amaliyotning juz’iy masalalarini ham olgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayoni o‘ta qiziqarli jarayondir, uning yordamida ma’lum bir xalqqa daxldor madaniyat, ma’rifat, ilm-fan, tarix, san’at, siyosat va iqtisod voqeligi haqida ko‘pgina ma’lumotga ega bo‘linadi, tarjimonning ham dunyoqarashi kengayib boraveradi. Xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik ravnaq topib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga tuyassar bo‘linadi. Shunday ekan, mamlakatimiz ravnaqi uchun xorijiy tillarni

mukammal egallash, bu tilda erkin muloqot qila olish mahoratini o‘rganish va o‘rgatish, vatanimiz kelajagi hisoblangan yosh avlodni barkamol, zamonaviy fikrlovchi qilib shakllantirish masalasiga jiddiy yondashishimiz kerak. Xorijiy tillarni puxta egallabgina jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Shu sababdan ham, mamlakatimiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning aksariyati bevosita chet tillarini o‘rganishga qaratilgani beziz emas.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 6 май куни чет тилларини ўқитиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилиши. https://aza.uz/uz/posts/prezident-horizhiy-tillarni-orgatish-boyicha-kelazhak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni-yolga-qoyish-vaqtisi-soati-keldi_264888
2. С.Рахмонов таҳрири остида. Рисолаи унсия (Дўстона сұхбат). Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2022. – Б. 73.
3. Алексеева И.С. Введение в переводоведение: учеб.лос. М.: Академия, 2004.
4. К. Мусаев. Таржима назарияси асослари.- Тошкент, 2005.
5. Холбеков М.Н. Ўзбекистонда таржимашунослик. Ўзбекистон адабиёти ва санъати.-№ 1. 06.01.2010.

